

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| G.T.Xusanova | |
| Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish..... | 335 |
| M.A.Kuchkarova | |
| Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения | 338 |
| Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova | |
| Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari | 342 |
| K.Sh.Nishonova | |
| Boshlang'ich ta'limda integrativ ta'lim va uning turlari..... | 347 |
| A.R.Dilbarjonov | |
| Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari | 350 |
| I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova | |
| Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasi | 354 |
| M.M.Abdumannopov | |
| Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarining mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari | 358 |
| T.Y.Bakirov, O.S.Axmadjonova | |
| Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari | 362 |
| N.A.Qodirova | |
| Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi” (Ingliz tilini o'qitish misolida)..... | 366 |
| Z.N.Ortiqova | |
| Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari | 370 |
| M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva | |
| Ta'limda o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'rni | 377 |
| I.Kirgizov | |
| “Ey sabo” – komil insonga aksiologik yondashuv..... | 381 |
| A.T.Karimov | |
| Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari | 386 |
| A.M.Nurmuxammadjonov | |
| Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati | 390 |
| M.M.Najmetdinova | |
| Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari | 396 |
| M.Kurbanova | |
| Dutor cholg'usi ijrochiligida musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari..... | 400 |
| X.M.Shermatova | |
| Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati | 403 |
| T.N.Shokirov | |
| Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi | 407 |
| B.M.Qurbonova | |
| Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar | 410 |
| L.Sh.Shukurova | |
| Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlari va uning ilmiy tahlili..... | 415 |
| A.A.A'zamjonov | |
| Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'rni | 419 |
| A.A.Abdisattorov | |
| Musiqqa fani o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari | 422 |
| I.D.Rustamov | |
| O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'rni (Doira cholg'usi misolida)..... | 428 |
| A.A.Ergashev | |
| Vokal-xor ta'limida finale-2003 dasturining qo'llanishi..... | 432 |
| A.A.Mamurov | |
| Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari | 438 |



UO‘K: 771.096.(075.) 86.625

**ZARDO‘ZLIK SAN‘ATI BUYUMLARINING BADIY USLUBIY JIHATLARI VA UNING
ILMIY TAHLILI****ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ АСПЕКТЫ ЮВЕЛИРНОГО ИСКУССТВА И ЕГО НАУЧНЫЙ
АНАЛИЗ****ARTISTIC STYLE ASPECTS OF JEWELRY ART ITEMS AND ITS SCIENTIFIC
ANALYSIS****Shukurova Lobar Sherbaevna**Farg‘ona davlat universiteti, Tasviriy san‘at kafedrasining o‘qituvchisi, san‘atshunoslik
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**Annotatsiya**

O‘zbek xalq amaliy sanati qadim zamonlardan buyon e’tiroflarga sazovor bo‘lib kelgan va madaniyati rivojlanayotgan tarixiy sharoitda unga alohida ahamiyat berilgan. O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixi davomida xalq amaliy bezak sanati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O‘zbek diyorida vujudga kelib gullab-yashnagan sanat turlari bemisl va betakrorligi bilan dunyoga mashhurdir. Xususan Buxoro, Samarqand shaharlaridagi xalq amaliy bezak san‘ati namunalari o‘tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaho san‘at asarlarining namunalari bo‘lib, xalqimizning shu bilan birga jahon madaniyatining durdonalaridan bo‘lgan badiiy va madaniy merosni tashkil etadi. Xalq amaliy bezak san‘ati kishilarning ma’naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Barcha san‘at turlari o‘z qiziquvchisiga o‘tkazadigan badiiy, hissiy va ruhiy ta’siri orqali bilim berib tarbiyalaydi. Bunday san‘at asarlari choqda ham badiiy, ham amaliy vazifalarni bajara olishi ularning xalq orasida keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Ushbu maqolada Buxoro zardo‘zlik san‘ati namunalari, ularning naqsh turlari, tikilish uslublari va XVIII-XX asrlarda yaratilgan tarixiy buyumlardan namunalar keltirilgan.

Аннотация

Узбекское народное искусство признано с древнейших времен, ему придается особое значение в исторических условиях развития культуры. На протяжении многовековой истории узбекского народа виды народного декоративно-прикладного искусства являются самой удивительной и популярной частью нашего богатого и красочного культурного наследия. Виды искусства, процветавшие на узбекской земле, известны во всем мире своим несравнением и уникальностью. В частности, образцы народно-декоративного искусства городов Бухары и Самарканда являются образцами совершенных, неповторимых и исторически бесценных произведений искусства, созданных нашими прошлыми поколениями, и в то же время составляют художественное и культурное наследие нашего народа., который является одним из шедевров мировой культуры. Народное декоративное искусство обогащает духовный мир людей, формирует их художественный вкус, воспитывает их дух. Все виды искусства воспитывают и воспитывают посредством художественного, эмоционального и духовного воздействия, которое они оказывают на свою аудиторию. Тот факт, что такие произведения искусства могут выполнять как художественные, так и практические задачи в свое время, является причиной их широкого распространения в народе. В данной статье представлены образцы бухарского ювелирного искусства, их виды узоров, стили шитья, а также примеры исторических изделий, созданных в XVIII-XX веках.

Abstract

Uzbek folk art has been recognized since ancient times, and it is given special importance in the historical conditions of developing culture. During the centuries-old history of the Uzbek people, the types of folk decorative arts are the most amazing and popular part of our rich and colorful cultural heritage. The art forms that flourished in the Uzbek land are world famous for their incomparable and uniqueness. In particular, the examples of folk decorative art in the cities of Bukhara and Samarkand are examples of perfect, unrepeatable and historically priceless works of art created by our past generations, and at the same time, they constitute the artistic and cultural heritage of our nation, which is one of the masterpieces of world culture. Folk decorative art enriches the spiritual world of people, shapes their artistic taste, and educates their spirit. All types of art educate and educate through the artistic, emotional and spiritual impact they have on their audience. The fact that such works of art can perform both artistic and practical tasks at the time is the reason for their wide spread among the people. This article presents samples of Bukhara goldsmith's art, their types of patterns, sewing styles, and examples of historical items created in the 18th-20th centuries.

Kalit soʻzlar: Zardoʻzlik, zamindoʻzi-guldoʻzi, zar ip, mato, zarbof toʻn, urf, anʼana, guli chorbarg, guli qalʼagi, bargi majnunbed, qoʻchqor shoxi, darham, tagalak, turunj, bulbulkoʻz, butador, qandahorcha, bodom, chorgul, kaʼbagul.

Ключевые слова: Ювелирное дело, заминдози-флорист, зарская нить, ткань, зарбоф тон, традиция, традиция, цветок чорбарг, цветок калаги, ивовый лист, бараний рог, дархам.

Key words: Goldsmithing, zamindozi-florist, zar thread, fabric, zarbof ton, tradition, tradition, flower chorbarg, flower kalagi, willow leaf, ram's horn, darham .

KIRISH

Zardoʻzlik sanʼati uzoq tarixga ega boʻlib, uning Kichik Sharqdan Rim imperiyasiga kirib kelgani haqida miloddan avvalgi I asrda yashab oʻtgan qadimgi grek tarixchisi Galikarnaslik Dionisiyning “Qadimiy Rim” (Rimskie drevnosti) asarida Qadimgi Rimning 616-579 yillardagi beshinchi qiroli Lutsiy Takviniiy Prisk (yoki Qadimgi Takviniiy) tilla ip bilan jilolangan kiyim kiygani haqida yozgan. Milodiy I asrda yashagan qadimgi Rim tarixchisi Katta Pliniyning entsiklopedik asarlari orqali ham zardoʻz kiyimlar Kichik Sharqdan Rim imperiyasiga kirib kelgani maʼlum. Antik davr tarixchisi Strabonning yozishicha, Osiyo xalqlari xashamati bilan dastlab Aleksandr Makedonskiy qoʻshinlari tanishganlar. Greklar zardoʻz kiyimlar, ularga qadalgan duru-javohirlar va kashta bilan bezatilgan harir matolarni ilk bor koʻrib xayratda qolganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Markaziy Osiyoda ham zardoʻzlikning oʻsha davrlarda mavjudligi 1947 yilda Toshkent viloyati Vrevskiy posyolkasi (hozirda Chinoz tumanidagi Olmazor shaharchasi) xududida I-II asrlarga mansub arxeologik topilma – zarbof kiyim bilan dafn etilgan ayol qabri topilgani bilan tasdiqlangan.

Sanʼatshunos olim L.I.Rempelning taʼkidlashicha, zardoʻzlik sanʼati Buxoroda XIV-XV asrlarda meʼmerchilik, naqqoshlik hamda badiiy xunarmandchilikning boshqa turlarining yuksalish davrida paydo boʻlgan va rivojlangan. Xususan, podshoh Aleksey Mixaylovichning rus asirlarini ozod qilish va boshqa maʼlumotlar yigʻish maqsadida Buxoro va Xiva xonliklariga 1669 yilda yuborilgan elchilari Boris Andreevich va Semyon Ivonovich Pazuxinlar bir yarim yil davomida Buxoroda Abdulazizxon saroyida boʻlishib, oʻz safarlari xususida batafsil hisobot yozishgan. Unda keltirilishicha, Abdulazizxon ularni koʻrinishxonada, balandlikdagi 6 pogʻona, 4x4 arshin (2,84x2,84 metr) oʻlchamdagi taxtda tillorang zargilamda oʻtirgan xolda kutib olgan. Safar soʻngida xon ularga zarbof toʻn va boshqa zardoʻz kiyimlar tortiq qilgan.

Afsuski, meʼmorchilik singari zardoʻzlikda ham XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy nobarqarorlik tufayli susayish kuzatilgan. Ayniqsa, taxtga Mangʻit sulolasi kelgach uning ilk vakillari - amir Shoxmurod (1785-1800) va amir Xaydar (1800-1826) hashamatsiz, kamtar va faqirona yashash tarafdori boʻlganligi sababli saroy amaldorlari va zodagonlar ham zardoʻz kiyim kiyishga jazm qilolmagan. Oqibatda, qariyb bir asrdan ortiq vaqt davomida zardoʻzlik buyumlariga talab yaxshi boʻlmagan va ushbu sanʼat turi inqiroz yoqasiga kelib qolgan. Shu sababli, muzeylarda aynan amir SHohmurodga tegishli birorta ham zardoʻz kiyim mavjud emas.

Lekin, XIX asr oʻrtalaridan keyingi amir, uning oila aʼzolari hamda amaldorlarning zardoʻz kiyimlarga ruju qoʻyishi, saroydagi bayramona koʻshkning zardoʻzlik buyumlari bilan keng bezatilishi, zarbof toʻnlardan tortiq qilish urfga kirishi, Yevropa bozorlariga zardoʻzi buyumlarni olib chiqish, rus, ingliz va boshqa savdo firmalarining zardoʻzlik buyumlariga koʻplab buyurtmalari uning qayta jonlanishi va yanada kengroq miqyosda rivojlanishiga sabab boʻlgan.

NATIJALAR

Yuqorida qayd qilingan sabablarga koʻra, hozirda yurtimizning muzeylarining zardoʻzlikka oid esponatlarining asosiy qismini XIX asr oʻrtalari va XX asr boshlarida tikilgan mangʻitlar sulolasi davriga oid zardoʻzi kiyimlar tashkil qiladi.

Zardoʻzlik naqshlari zardoʻzlar tilida gul va barg naqshlari oʻzining alohida nomlariga ega. Masalan, “guli chorbarg” (toʻrt yaproqli gul), “guli shishbarg” (olti yaproqli gul), “guli hashtbarg” (sakkiz yaproqli gul), “lolagul” va hokazolar. Yaprogʻi sakkiztadan ortiq boʻlgan gullar “guli sadbarg” - yuz yaproqli gul yoki “guli koshgʻariy” - qashqargul deb atalgan. Keng hajmdagi gullar “guli kosagul” yoki “guli qalʼagi” deyilgan. Barg turi va soniga qarab: “yakkabarg” - dona-dona yaproqlar, “dubarg” - juft yaproq, “sebarg” - uchtalik yaproqlar, “bargi majnunbed” - majnuntol yaprogʻi, “bargi shullukiy” – zuluksimon yaproq va hokazolar. “Qoʻchqor shoxi” shaklini eslatuvchi “tagalak” usuli ham keng qoʻllanilib, undan kashtalarning orasidagi boʻsh qolgan tagzaminni toʻldirishda foydalanilgan.

PEDAGOGIKA

Ko'plab geometrik ko'rinisdagi naqshlar ham dastavval islamiy asosga ega bo'lgan. Xususan, to'rt bargli yaproqgul naqshi kungirador peshtoqni eslatuvchi "chor madoxil" (to'rt darvoza, "madoxil" arabcha - kirish degani), bir yaproqgul naqshi ikkinchisiga ustma-ust tushirilgani "chor madohili durun ba berun" deyilgan.

Buxoro zardo'zlik san'ati XIX asr o'rtalaridan qayta taklanib, ushbu asr oxirlarida ancha yuksalgan. Xususan, XIX asr o'rtalarida ustalar zarrin naqshlar bilan fon orasidagi mutanosiblikka e'tibor berishgan bo'lishsa, asr oxirlariga kelib bezak xashamligi ustivor bo'la boshlagan.

MUHOKAMA

ЗАРДУЗ ПОЙАБЗАЛ. БУХОРО. XIX АСР ЎРТАЛАРИ.
БДМҚ, КП - 1815/9

Xususan, hozirda Buxoro Davlat Muzey Qo'riqxonasida saqlanayotgan, XIX asr o'rtalarida tikilgan binafsharang duxobali etikning yuqori qismi oq baxmal, astari adrasdan bo'lib, "guldo'zi-zamindo'zi" usullar qo'llanilgan. "Guldondan o'sib chiqqan" murakkab islamiy kompozitsiyaga "darham" va "bodom shoxnok" naqshi tushirilgan. Zamini "tagalak" usulida, bodom naqshlar esa "mavji chashmi bulbuli shishtai" va "shosh xoli yakmavja"

kashta turlari bilan bejirim to'ldirilgan.

Kulutapo'shak – soch o'rimlarini qoplab turadigan uzun dumga o'xshash g'ilofli bosh kiyimi bo'lib, uni yoshi katta ayollar kiyganlar. G'ilofning tagidagi ikki-uch joyiga qadalgan tugmalar sochlarni yoyilib ketishidan

saqlab turgan. Buxoro Davlat Muzey Qo'riqxonasi fondidagi XIX asr oxiriga mansub yashil duxobali kulutapo'shak "zardo'zi-guldo'zi" usulida kashtalanib, cho'qqisida "chorgul" naqshi, g'ilofdagi "butagul" kashtasida "qo'shbodom" naqshlari bor. Chekkalaridagi hoshiya yo'li "kandori chor baxyagiy" kashtasida, "guldon" va "bodom" naqshlari esa "mavjichashmi bulbul shishtai", "mavji chor dar chor" kashta usullarida to'ldirilgan. Gardish chekkalariga ipak ipdan jiyak tikilgan.

XULOSA

Zardo'zlik Buxoroda taxminan XIX asr o'rtalaridan 1920 yilgacha, ya'ni Buxoro M.V.Frunze boshchiligidagi Qizil armiya tomonidan bosib olinguniga qadar rasmiy jihatdan saroy san'ati hisoblangan. Shaharda tayyorlanadigan zardo'z buyumlarning deyarli aksariyatiga buyurtmachi bo'lgan amirlik saroyi yo'qolgach, Sovet hukumati o'rnatilishi hamda aholining badavlat qatlami qatag'on qilinishi oqibatida zardo'z buyumlarga talab keskin pasayishi zardo'zlik ustaxonalari yopilishiga sabab bo'lgan. O'z navbatida, zardo'z ustalar tirikchilik qilish maqsadida hunarmandchilik artellariga birlashib, asosan mayda buyumlar (asosan do'ppi va ayollarning ayrim kiyim-kechaklari) tayyorlashga kirishishgan.

Buxoroning ushbu "shohona" kasb egalari uchun qiyin davr yuzaga kelishiga qaramasdan, ba'zi zardo'z ustalar kasbiga sodiq qolgan xolda o'z bilim va tajribalarini ota-meros hunar sifatida farzandlariga o'rgatib kelishgan. Ammo, qisqa vaqt ichida zardo'zlik san'ati ham Sovet xukumati nazariga tushib, ushbu xunarning mohir ustalariga yana talab kuchaygan.

Davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor sabab, xozirgi kunda zardo'zlik yanada gullab yashnagan san'at sohalaridan biriga aylanmoqda. Amirlik davri zardo'zligi uslublari saqlanib qolgan xolda, zamon talabi bilan uyg'unlashib, o'z rivojlanishida davom etmoqda.



КУЛТАПУШАК. БУХОРО. XIX АСР ОХИРИ.
БДМҚ, КП-9210/9

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Народное декоративное искусство Советского Узбекистана. Текстиль. – Ташкент: Издательство Академии наук Узбекской ССР, 1954. – 179 с.
2. Ремпель Л.И. Далекое и близкое (страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства старой Бухары). – Ташкент: Издательство литературы и искусство имени Гафур Гуляма, 1982. - С. 244.
3. Русский биографический словарь: Изд. под наблюдением председателя Императорского Русского Исторического Общества А.А.Половцова. - Санкт-Петербург: тип. И.Н.Скорородова, 1902. - Т.13. С.112-113.
4. Qilichev R.E. XIX asrning ikkinchi yarmi -XX asr boshida Buxoro shahrida hunarmandchilik: Tarix fanlari nomzodi diss. ... Toshkent, 1997. – 185 b.
5. Гончарова П.А. Золотошвейное искусство Бухары. – Ташкент: Издательство литературы и искусство имени Гафур Гуляма, 1986. – 112 с.
6. Ahmedov E.Ya. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr Buxoro tasviriy san'ati shakllanishi va rivojida an'anaviy madaniyatning ahamiyati: san'atshunoslik fanlari nomzodi diss. ... – Toshkent, 1993. – 225 b
7. Bo'ronovning B.O. XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida Buxoro turarjoy me'morligida naqsh san'ati: San'atshunoslik fanlari nomzodi diss. ... – Toshkent, 2007. – 141 b.
8. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. – Ташкент: Государственное издательство художественной литературы Узбекистана, 1958. – 292 с.
9. Sodiqova N. O'zbek milliy kiyimlari XIX- XX asrlar. – Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 2006. – 192 b.
10. Tursunov S.N. O'zbekiston janubiy hududlarida madaniy va amaliy san'at yodgorliklari tarixi. – Termiz: Surxon-nashr, 2017. – 288 b.